



Sevaraxon NAZAROVA,
Andijon davlat chet tillari institutiI doktoranti
E-mail: nazarovasevara94@gmail.com

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent I.Rasulova taqrizi asosida

COMPARATIVE ANALYSIS OF STRUCTURAL ASPECTS OF POLYTAXEMES IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

Despite the fact that structural aspects of certain types of polytaxemes, including their polycomponential types, have been studied to a certain extent in the special literature, the issues of their terminological system and their unification have hardly been investigated. From this point of view, this article provides a comparative systematic analysis of the structural schemes of polytaxemes in English and Uzbek languages. In addition, in the article a special terminological apparatus of polytaxemes is developed and proved with the help of examples.

Key words: polytaxeme, coordination, subordination, mixed connection, unitaxeme, diotaxeme, triotaxeme, quartetaxeme, pentetaxeme.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ АСПЕКТОВ ПОЛИТАКСЕМ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Несмотря на то, что структурные аспекты определённых типов политаксем, в том числе их поликомпонентных типов, в некоторой степени изучены в специальной литературе, вопросы их терминологической системы и унификации практически не исследованы. С этой точки зрения в данной статье проводится сравнительный систематический анализ структурных схем политаксем английского и узбекского языков. Также в статье разработан специальный терминологический аппарат политаксем и обоснован с помощью примеров.

Ключевые слова: политаксема, сочинение, подчинение, смешанная связь, унитаксема, диотаксема, триотаксема, квартетаксема, пентетаксема.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA POLITAKSEMALARNING STRUKTURAL JIHLATLARI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Maxsus adabiyotlarda politaksemalarning ma'lum turlari, shu jumladan, ularning ko'p komponentli turlarining struktural jihatlari ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa-da, ularning atamalar tizimi va ularning unifikatsiyasi masalalari deyarli o'rganilmagan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada politaksemalarning strukturaviy sxemalarini ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy sistematik tahlil qilish ko'zda tutiladi. Shuningdek, maqolada politaksemalarning maxsus terminologik apparati ishlab chiqiladi va misollar yordamida dalillanadi.

Kalit so'zlar: politaksema, teng bog'lanish, tobe bog'lanish, aralash bog'lanish, unitaksema, diotaksema, triotaksema, quartetaksema, pentetaksema.

Kirish. Til insoniyatga to'laqonli muloqot vositasi sifatida xizmat qilar ekan, unda yirik kommunikativ birliklar sanaluvchi gaplar muhim o'rin tutadi, chunki samarali muloqot jarayonini sodda gaplar, ayniqsa qo'shma gaplar turlarisiz tasavvur qilish qiyin. Bunga asosiy sabab muloqotdoshlarning muayyan kognitiv asosga ega bo'lgan murakkab kommunikativ intensiya (muddao)larini o'z suhbatdosh(lar)iga to'laqonli va tushunarli qilib yetkazishlarida nisbatan katta qamrovga ega bo'lgan qo'shma gaplar muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shma gaplar yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning ko'p komponentli turlari strukturasi, hajmi masalasida izlanishlar kam. Ko'p komponentli qo'shma gaplar (KKQG)ning strukturaviy tahlili politaksemalar qismlarining bog'lanish xarakterini va ularning orasidagi o'zaro aloqani tavsiflashni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili. G.P.Uxanov ta'kidlashicha, KKQGdagi har qanday sintaktik aloqa kompleksli bo'lib, qo'shma gapning qismlari o'rtasidagi muayyan munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu qismlarning har biri gapning struktural sxemasida ma'lum sintaktik o'rinni egallaydi [1].

O'zining ko'p komponentli qo'shma gaplarga bag'ishlangan nazariy tadqiqotida G.P.Uxanov ushbu gaplarning strukturaviy sxemalarini tahlil qilish amaliyotiga yakun yasaydi, ularni predikativ birliklarga bog'liq tizim sifatida ko'rib chiqadi. Tadqiqotchining fikricha, polipredikativlik sharoitida butun gapning ma'nosi predikativ birliklar qismlarining o'zaro munosabati natijasida hosil bo'ladi va aynan shu munosabat KKQG lingvistik qurilishga asos bo'ladi.

V.A.Beloshapkovaning asarlarida bir oz boshqacha pozitsiya taqdim etilgan, u barcha qo'shma gaplarni hajmi

(predikativ birliklar soni) bo'yicha emas, balki strukturaviy sxemalar soni bo'yicha tasniflaydi. Olimaning fikricha, barcha qo'shma gaplar minimal konstruksiyalar yoki murakkablashirilgan turdagi gaplardir [2].

Xuddi shunday tasniflash tamoyilini N.I.Formanovskaya tadqiqotida ham uchratamiz, u minimal va murakkablashgan tuzilmalarga bo'linishni ochiqlik/yopiqlik tamoyili bilan birlashtirib, gapning aktual bo'linish darajalarining muhimligini ta'kidlaydi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. G.F.Kalashnikova minimal miqdoriy tarkibni hisobga olib (ularning tarkibiy minimumi uchta komponentdan iborat) KKQGni quyidagicha tasniflash tiradi:

Birinci yarusda modellar bog'lanish turlari bo'yicha farqlanadi: ketma-ket ergashish, nouyushiq ergashish, uyushiq ergashish, teng va tobe bog'lanish kombinatsiyasi, ko'p komponentli teng bog'lanish. Yuqoridagi bog'lanishlarga ega bo'lgan barcha konstruksiyalar polipredikativli qo'shma gaplar mikrotizimining birinchi darajasini tashkil qiladi.

Ikkinchi yarus to'rt komponentli gaplardan iborat: ketma-ket ergashish va birgalik ergashish, ikki karra ergashish, uyushiq birgalik ergashish va ketma-ket ergashish, nouyushiq birgalik ergashish va ketma-ket ergashish.

Uchinchi yarusda besh komponentli teng bog'lanish va ketma-ket ergashish, teng bog'lanish va ketma-ket ergashish, ketma-ket tobe bog'langan konstruksiyalar bilan ajralib turadi.

Bu aytilgan konstruksiyalarda birinchi xususiyat - minimal miqdoriy tarkib - u yoki bu konstruktiv minimumga ega bo'lgan yarusga mansublikni ochib beradi; ikkinchi belgi - bog'lanish turi - har bir yarus ichidagi konstruksiyalarni ajratib turadi. Dastlabki ikkita xususiyatning o'zi bir turdagi

polipredikativ qo'shma gapni boshqasidan ajratishga imkon beradi [4].

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, qiyoslanayotgan tillarda politaksomalarni quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

uch komponentli bog'lovchisiz (asindetik) qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Bir lahzada do'kon chollar, yigitlarga to'ldi, barcha shod-xurram, g'ovur-g'uvur suhbat boshlanib ketdi. (Oybek, 54)

ingliz tilida: She was much happier, she looked younger, her mourning was as unobtrusive. (Fitzgerald S., 69)

uch komponentli "Coord.+Coord." tipida teng bog'langan (sindetik) qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Hamma keldi-yu, Sattor kechikayotgan edi, lekin biz ishni boshlashga qaror qildik. (Qodirov P., 65)

ingliz tilida: But there was an added drag now from the easterly breeze and the old man rode gently with the small sea and the hurt of the cord across his back came to him easily and smoothly (Hemingway E., 25)

uch komponentli "SubCl+SubCl+PrCl" tipida ergashish orqali (sindetik) bog'langan qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Agar sen maslahat olish uchun kelgan bo'lsang, g'araz niyating yo'q bo'lsa ham, men sendan hanzub shubhalanayman. (Otoboy A. tarjimasi, 8)

ingliz tilida: As the traffic delayed them, until they came into sight, he slowed up. (Fitzgerald S., 96)

uch komponentli "SubCl+PrCl+Coord.+PrCl" tipidagi qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Bizni tushungan xotinlar qancha ko'p bo'lsa, xavf shuncha kamayadi va kurashimiz shuncha yengillashadi (Muxtor A., 55).

ingliz tilida: When our elated discussion passed into the stage of incomprehensible shouts, Mr. Adams suddenly jumped off the couch and he stood like that for a full minute. (Ilf I., Petrov Y., 78)

uch komponentli "Coord.+PrCl+SubCl" tipidagi qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Men o'z fikrimni aniq tushuntirib berishga harakat qilyapman, lekin siz uni eshitishni xohlamayapsiz, chunki siz haqiqatni bilmaysiz. (O.Xoldor, 43)

ingliz tilida: They played like young cats in the dusk and he loved them as he loved the boy. (Hemingway E., 8)

to'rt komponentli bog'lovchisiz (asindetik) qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Tushdan keyin hamma jonlanib qoldi, birov hazil qilgan, birov shang'illab qandaydir voqeani so'zlagan, eng dangasa ishyoqmaslar ham allanechuk serg'ayrat, chaqqon bo'lib qolgan. (Musajonov, F.)

ingliz tilida: Some feelings are shallow,
Some feelings are deep;

Some make us smile,
Some make us weep. (English poems, 34)

to'rt komponentli "Coord.+Coord.+Coord." tipida teng bog'langan (sindetik) qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Shu payt to'satdan eshik ochildi-yu, Zunnunxo'ja xalloslagancha kirib keldi lekin negadir u hech kim bilan salomlashmadi va bundan Saida biroz ranjidi. (Qahhor A.)

ingliz tilida: The moon had been up for a long time but he slept on and the fish pulled on steadily and the boat moved into the tunnel of clouds. (Hemingway E.,

to'rt komponentli ergashish orqali bog'langan (sindetik) qo'shma gaplar;

o'zbek tilida: Mehri dadasining odatlarini yaxshi bilardi, shuning uchun dadasi qancha urishib, qancha dag'allik qilsa ham, u sira-sira ko'ngliga olmasdi, chunki uning dadasi qorong'i tushguncha ter to'kib ishlardi (Rashidov Sh, 69).

ingliz tilida: If you always try your best
Then you'll never have to wonder

About what you could have done
If you'd summoned all your thunder. (English poems,

14)

to'rt komponentli "SubCl+ SubCl+PrCl+Coord." tipidagi qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Kun botib, shahar sokinlasha boshlagach, u bu haqida batafsil so'zlab berdi, men esa o'sha sayyoraning rasmini chizdim. (Sultonov x. tarjimasi, 240)

ingliz tilida: Although Officer Delinko acts as if he is a fool, his heart is in the right place, and he always tries to follow his gut instinct. (Hiassen C., 18)

to'rt komponentli "Coord.+Coord.+PrCl+SubCl" tipidagi bog'langan qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Boyning zulmi yanada ortdi va bu hol xalqning g'azabini kuchaytirdi lekin xalq hech narsa qilolmasdi chunki boy bunga yo'l qo'ymasdi. (G'.G'ulom, 53)

ingliz tilida: It was a high snowy mountain and it dominated the valley, but it was so far away that it did not make a shadow (G'ofurov I. tarjimasi "Alvido, qurol", 252)

to'rt komponentli "SubCl+Coord.+SubCl+Coord.+SubCl+PrCl" tipidagi (bitta ergashish va uchta teng bog'langan qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Agar u kelganda yoki qachonki uning kelish xabari berilganda, biroq kelinlar buni payqamay qolganda, ona yurakdan xafa bo'lar edi. (Murodov M., 45)

ingliz tilida: When I made him take his pipe, and when I had loitered with him about the forge, and when we sat down together on the great block of stone outside it, we got on better. (Dickens Ch., 354)

to'rt komponentli "SubCl+PrCl+SubCl+PrCl" tipidagi qo'shma gaplar;

o'zbek tilida: Agar dars vaqti tugagan yoki o'tib ketgan bo'lsa, shu bilan bugungi dars tamom qilindi, agar hali vaqt bo'lsa, yana biror jumla o'qilardi (Tursun P., 45)

ingliz tilida: When I came, there was nobody at home, if there had been any stranger, I would have called the police immediately. (Tolkien J.R.R., 56)

besht komponentli bog'lovchisiz (assindetik) qo'shma gaplar

o'zbek tilida: Lov-lov yonayotir quyosh,

Osmon chorlayotir, chorlar yuksak tog',

Shunday yuragimda tovushsiz faryod,

Men senga inonmoq istayman, evoh. (R. Parfi, 22)

ingliz tilida: The door was open, there was a soldier sitting on a bench outside in the sun, an ambulance was waiting by the side door and inside the door, I went in, there was the smell of marble floors and hospital. (Hemingway E., 34)

besht komponentli egashish orqali bog'langan (sindetik) qo'shma gaplar;

o'zbek tilida: Agar biz jahdu jadal qilib, avlodlarimiz jaholat botqog'idan qutulmasa, birortasi taraqqiyot yo'lini tutmasa, boshqa musulmon mamlakatlari bilan ittifoq mahkamlanmasa, yaqin o'rtada biz musulmonlarning muqaddas yerlarimizni ham xristianlar bosib oladilar. (Oybek, 15)

ingliz tilida: He felt sometimes that he would never have married her if he had known that she would have so many years before her, when he had so few. (Galsworthy J., 40)

besht komponentli teng bog'langan qo'shma gaplar

o'zbek tilida: U yerga qaramasdi va uning nigohlari faqat yaydoq cho'lga va tim qor osmonga sochilgan yulduzlarga qadalgandi, uzoqdan esa sovuq shamol va uzun anhorlardagi muzdek suvning shaloplashlari quloqqa chalinardi, ayol bo'lsa butun vujudi bilan qalt-qalt titir edi lekin birov buni payqamas edi. (Amir Fayzulla tarjimasi, 10)

ingliz tilida: The other night we had been discussing a long time, and suddenly the light was turned off, Mr Elliot laughed, and soon afterwards his friends came in, and they went away. (Austen J., 56)

besht komponentli "PrCl+SubCl+Coord.+PrCl+SubCl+PrCl" tipidagi qo'shma gap

o'zbek tilida: Ona o'g'ilchasi ma'yus ko'zlarini tikdi, chunki bu gapni aytishga bola hali yoshlik qilardi, biroq esini taniganidan beri oilasini qora hayotda ko'rayotgan go'dakdan shunday gap chiqishi tabiiy edi, chunki boshga kelayotgan mashaqqatlardan qutqaradigan hamma kuchlar ularni har safar umidsiz qoldirgan, shuning uchun bola fikri ham na quyosh, na oy, samo, na chaqqoq, na biror but ularga yordam bera olmasligini tushunib bo'lgandi. (Akrom Malik, 3)

ingliz tilida: It was possible that I had arrived too late and it was also highly probable that she had decided not to meet with me that's why I didn't want to take any risks. (Austen J., 46)

bash komponentli "Coord. + Coord. + PrCl + SubCl + Coord." tipidagi qo'shma gap

o'zbek tilida: Mahmuda na birovga ish aytdi va u na Begzodning murod-u maqsadini surishtirdi, bir zumda to'y boshlandi go'yoki birov uni shoshtirganday, lekin bari ishlar uning o'z ixtiyori bilan bo'ldi. (Shermuhamedov P., 32)

ingliz tilida: They were strange shoulders, still powerful although very old, and the neck was still strong too and the creases did not show so much when the old man was asleep and his head fallen forward. (Hemingway E., The Old Man and the Sea, 7)

bash komponentli "SubCl+ PrCl+ SubCl+Coord.+SubCl"

o'zbek tilida: Piyoladan bug' chiqib turmasa, men choy ichganday bo'lmayman, chunki qishda choy tez soviydi va uning mazasi yo'qoladi xuddi choy qaynamagan suvda damlangandek bo'lib qoladi. (Umarbekov O')

ingliz tilida: After the sun went down he tied it around his neck so that it hung down over his back and he cautiously worked it down under the line that was across his shoulders now. (Hemingway E., 17)

Shu o'rinda biz tilshunos G'.M.Hoshimovning "taksemik nazariyasi"ni biroz modifikatsiya qilgan holda, yuqoridagi

qo'shma gap tiplarini tarkibidagi komponentlar soniga ko'ra quyidagicha nomlashni taklif qilamiz [5]:

Unitaksema (grekcha uni – bir) bir ega va kesim guruhidan iborat gap;

Diotaksema – (grekcha dio – ikki) ikki komponentli (2 ega va kesim guruhidan iborat) qo'shma gap;

U + coord./ subord. (syn/asyn) + U

Triataksema – (grekcha tria – uch) uch komponentli (3 ega va kesim guruhidan iborat) qo'shma gap;

Kuartetaksema – (grekcha kuarate – to'rt) to'rt komponentli (4 ega va kesim guruhidan iborat) qo'shma gap;

U+coord./subord.(syn/asyn)+U+s/c(s/c)+m+c/s(s/a)+U

Pentetaksema – (grekcha pente – besh) komponentli (5 ega va kesim guruhidan iborat) qo'shma gap;

U+c/s(s/a)+U+s/c(s/a)+U+c/s(s/a)+u+c/s(s/a)+U

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, analitik tillarga mansub ingliz tili va agglyutinativ tillarga kiruvchi o'zbek tilidagi ko'p komponentli qo'shma gaplarning yasalishi, qo'shma gap turlari va ularning tiplari, qo'shma gap komponentlari o'rtasidagi munosabatlar, ular o'rtasidagi bog'lovchi vositalar bir xil. Ularning tillardagi asosiy farqlari shundaki, ko'p komponentli qo'shma gaplar har bir tilda mazkur tilning milliy resurslari orqali bevosita gap qoliplarini to'ldiradi, shu yo'sinda mazkur gaplarning kognitiv-semantik strukturalari voqelantiriladi, vaholanki kognitiv-semantik strukturalar rivojlangan, to'laqonli inson tafakkurida bir xil aks etadi.

ADABIYOTLAR

1. Уханов Г. П. Структура сложных полипредикативных предложений (основные понятия) / Г. П. Уханов // Сложные элементарные и полипредикативные предложения. – Калинин, 1983. – С. 82
2. Белошапкина В.А. Современный русский язык. Синтаксис / В.А.Белошапкина. – М: Высшая школа, 1977. – С.515-516
3. Формановская Н.И.;Шевцова С.В.Речевой этикет. Русско-английские соответствия: Справочник. 2-е изд. испр. — Москва: Высш. шк., 1992 —С.80.
4. Калашникова Г. Ф. Особенности многокомпонентных сложных предложений в поэтическом тексте / Г. Ф. Калашникова // Сложное предложение в тексте : межвуз. тем. сб. научных трудов. — Калинин, 1988. — С.138 – 146
5. Хашимов Г.М. Типология сложных предложений разносистемных языков. —Тошкент: Фан, 1991. —С.36